“SADDI ISKANDARIY” DOSTONIDA RAHBAR SHAXS OBRAZI

Iroda Mamayunusovna PARDAYEVA
Professor v.b.
Samarqand davlat chet tillari instituti
Samarqand, O‘zbekiston
e-mail: pardayevairoda74@mail.com

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar obrazi orqali ideal rahbar shaxs konsepsiyasining badiiy-timsoliy ifodasi tahlil qilinadi. Iskandar timsolining Sharq adabiy an’analaridagi manbaviy qatlamlari hamda ularning Navoiy poetikasida ma’rifiy-axloqiy maqsadlar bilan uyg‘unlashish xususiyatlari yoritiladi. Doston matnida rahbarlik mezonlari sifatida hikmat, adolat, insonparvarlik, qudrat, saxovat va maslahatlashuv madaniyatining o‘zaro bog‘liq tizim sifatida badiiylashtirilgani asoslanadi. Xulosada “Saddi Iskandariy”da rahbar obrazi ma’naviy mas’uliyat va xalq manfaatiga tayangan yuksak ideal darajasida talqin etilgani umumlashtiriladi.

Tayanch so‘zlar: Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”, Iskandar obrazi, ideal hukmdor, rahbarlik mezonlari, adolat, hikmat, saxovat, maslahatchilar instituti, timsoliy ifoda.

ОБРАЗ РУКОВОДИТЕЛЯ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «САДДИ ИСКАНДАРИ»

Ирода Мамаюнусовна ПАРДАЕВА
и.о. профессора
Самаркандский государственный институт иностранных языков
Самарканд, Узбекистан

Аннотация

В статье анализируется художественно-символическое воплощение концепции идеального руководителя в дастане Алишера Навои «Садди Искандари» через образ Искандера. Рассматриваются источниковые пласты данного образа в восточной литературной традиции и особенности их переосмысления в поэтике Навои в соответствии с нравственно-просветительскими целями. Обосновывается, что в тексте дастана такие критерии руководства, как мудрость, справедливость, гуманизм, власть, щедрость и культура совещания, художественно осмыслены как взаимосвязанная система. В заключении обобщается, что образ руководителя в «Садди Искандари» интерпретируется как высокий идеал, основанный на духовной ответственности и служении интересам народа.

Ключевые слова: Алишер Навои, Садди Искандари, образ Искандера, идеальный правитель, критерии руководства, справедливость, мудрость, щедрость, институт советников, символико-образное выражение.

Mumtoz adabiyot taraqqiyoti jarayonida hukmdor obrazi oddiy syujet qahramoni yoki muayyan tarixiy shaxsning badiiy aks-sadosi sifatida emas, balki jamiyatning axloqiy-me’yoriy tartibi, siyosiy tafakkuri va davlat boshqaruvi haqidagi qarashlarini mujassamlashtiruvchi badiiy model sifatida shakllangan. Sharq adabiy an’anasida podshoh timsoli, avvalo, hokimiyatning tashqi belgilarini emas, balki uning ma’naviy asoslarini – adolat, hikmat, farosat, insonparvarlik, mas’uliyat va xalq oldidagi javobgarlikni sinovdan o‘tkazuvchi estetik maydon vazifasini bajaradi. Shu jihatdan badiiy asarlarda hukmdor obrazi jamiyat uchun ibratli namunaga aylantirilib, siyosiy kuchning axloqiy mezonlar bilan uyg‘unlashuvi masalasi markazga chiqariladi; natijada adabiyot ijtimoiy ongni tarbiyalovchi va ma’naviy idealni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanadi.

Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida ana shu mumtoz an’anani davom ettirgan holda, Iskandar timsolini muayyan tarixiy yoki zamondosh hukmdorga bevosita bog‘lamaydi, balki uni donishmandlik, qudrat, adolat va ma’rifat uyg‘unligini ifodalovchi ideal rahbar darajasiga ko‘taradi. Shoir Iskandar obrazini tarixiy shaxs sifatida emas, balki axloqiy-siyosiy fazilatlar mujassamlangan timsol sifatida talqin etadi; shu bois doston voqealari va baytlarida Iskandar shaxsiyati orqali hukmdor qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi konseptual qarashlar izchil ifodalanadi. Navoiy o‘z davrida ham yuksak davlat arbobi sifatida tanilgan, hukmdorlar va amaldorlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan shaxs bo‘lgani sababli, uning rahbarlik haqidagi qarashlari faqat nazariy mulohaza emas, balki hayotiy tajriba bilan mustahkamlangan badiiy xulosalar sifatida namoyon bo‘ladi.

“Saddi Iskandariy”da Iskandar obrazi donishmandlik va kuchni, adolat va insonparvarlikni, siyosiy iroda va ma’naviy mas’uliyatni bir butun tizimda uyg‘unlashtirgan rahbar sifatida tasvirlanadi. Doston matnida hukmdorning xalq bilan munosabati, maslahatchilar va mulozimlar bilan muvozanatli aloqasi, qaror qabul qilishdagi hikmat va uzoqni ko‘ra bilish qobiliyati alohida ta’kidlanadi. Shu

tariqa Iskandar timsoli romantik-afsonaviy qahramon sifatida emas, balki jamiyat boshqaruvida axloqiy mezonlar ustuvor bo‘lishi lozimligini dalillovchi ma’rifiy-axloqiy timsolga aylanadi. Navoiy bu obraz orqali hokimiyatning asl mohiyati kuchda emas, balki adolat va ma’rifatda ekanini poetik shaklda asoslab beradi.

Dostonda Iskandar shaxsiyati atrofida shakllangan voqealar va hikmatli baytlar hukmdorlikning turli qirralarini ochib beradi: xalq farovonligi uchun mas’uliyat, zulmga qarshi qat’iyat, saxovat va muruvvat, shuningdek, qarorlar oqibatini chuqur anglash kabi jihatlar Iskandar faoliyatining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Bu fazilatlar tasviri orqali Navoiy ideal rahbar siymosini faqat siyosiy qudrat egasi sifatida emas, balki jamiyat ma’naviy hayotining tayanchi, xalq ishonchi va umidini o‘zida mujassam etgan shaxs sifatida ko‘rsatadi. Shunday qilib, “Saddi Iskandariy” dostoni nafaqat tarixiy-afsonaviy syujetga ega asar, balki rahbar shaxsning axloqiy, siyosiy va ma’rifiy mezonlarini badiiy umumlashtirgan yuksak g‘oyaviy matn sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada Iskandar obrazi Navoiy ijodida individual qahramon darajasidan chiqib, jamiyat va davlat boshqaruvi haqidagi ideal tasavvurlarni ifodalovchi ramziy modelga aylanadi. Bu model orqali shoir hokimiyatning barqarorligi va davlatning ravnaqi, avvalo, rahbar shaxsning axloqiy komilligi, adolatparvarligi va xalq bilan hamnafasligiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Shu ma’noda “Saddi Iskandariy”dagi Iskandar timsoli mumtoz adabiyot doirasida rahbarlik konsepsiyasining eng mukammal badiiy ifodalaridan biri sifatida alohida ilmiy va ma’naviy ahamiyat kasb etadi.

Sharq adabiyotida Iskandar obrazi ko‘p qatlamli manbaviy asosga ega bo‘lib, uning shakllanishida tarixiy Aleksandr Makedonskiy haqidagi antik rivoyatlar, o‘rta asr tarixchilari xabarlari hamda islomiy an’anadagi Zulqarnayn konsepsiyasi muhim o‘rin tutadi. Masalan, at-Tabariy “Tarix ar-rusul va-l-muluk” asarida Iskandarni ko‘proq zabt etuvchi, ayrim hollarda esa vayronkor hukmdor sifatida tilga oladi, bu esa uning tarixiy qiyofasiga nisbatan tanqidiy munosabat mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Biroq Nizomiy Ganjaviyning

“Iskandarnoma”si hamda Amir Xusrav Dehlaviyning “Oyinai Iskandariy” asarlarida bu obraz tubdan o‘zgarib, fotihlik bilan bir qatorda ilm, hikmat va falsafiy tafakkur sohibi bo‘lgan hukmdor sifatida badiiylashtiriladi. Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandariy” dostonida esa Iskandar, avvalo, “xirad” – aql va ma’rifat timsoliga aylantiriladi.

Alisher Navoiy ana shu adabiy-traditsion zamin asosida Iskandar obrazini tayyor tarixiy portret sifatida emas, balki o‘zining rahbarlik haqidagi ideal qarashlarini mujassamlashtiruvchi poetik model sifatida qayta talqin qiladi. Shoir uchun Iskandarning qaysi tarixiy shaxsga qanchalik mos kelishi ikkilamchi masala bo‘lib, asosiy e’tibor uning qanday axloqiy, siyosiy va ma’rifiy mezonlar asosida “buyuk rahbar” maqomiga ko‘tarilganini ko‘rsatishga qaratiladi. Shu bois “Saddi Iskandariy” dostonida tarixiylik saqlanib qolgan holda, u ma’rifiy maqsadga bo‘ysundirilgan badiiy prinsip sifatida namoyon bo‘ladi va Iskandar timsoli real tarixdan ko‘ra kengroq – umuminsoniy rahbarlik idealini ifodalovchi ramziy shaxsiyatga aylanadi.

Doston matnida Iskandar, eng avvalo, ilm va hikmatga tayanadigan, qarorlarini tasodif yoki hissiyot asosida emas, balki chuqur tafakkur va maslahat orqali qabul qiladigan rahbar sifatida tasvirlanadi. Navoiy Iskandarning “bilik kasbi”ni ustuvor vazifa qilib olganini ta’kidlar ekan, shunday yozadi:

Necha vaqt anda maqom ayladi,
Bilik kasbiga ehtimom ayladi.
Musohib bo‘lub ahli hikmat bila,
Base ilm kasb etti rag‘bat bila [3;184].

Rahbarlikning markazida ilmiy-ma’rifiy tayyorgarlik turishini ochiq ko‘rsatadi. Shoirning “ne qilg‘olikim kimga niyatdurur, burun shart anga qobiliyatdurur” mazmunidagi fikri esa, qaror qabul qilish jarayoni avvalo rahbarning ichki salohiyati va bilim darajasi bilan bog‘liqligini anglatadi. Demak, Navoiy konsepsiyasida rahbarlik zo‘ravorlik yoki nasab bilan emas, balki “qobiliyat – vuquf – hikmat” zanjiri orqali legitimlashadi. Iskandar

timsolida strategik fikrlash, muammolarni kuch bilan emas, aql va murosaga tayangan holda hal etish yetakchi mezon sifatida ilgari suriladi.

“Saddi Iskandariy” dostonining g‘oyaviy markazida adolat tushunchasi turadi va u hukmdorlikning asosiy shiori sifatida talqin etiladi. Navoiy bu borada qat’iy pozitsiyani ilgari surib, shunday deydi:

Kerak shah adolat shior aylagay,
Ki zulm ahlini xoksor aylagay.
Xaloyiq topib adlidin intizom,
Ishi ikki dunyoda bo‘lg‘ay tamom [3;441].

Adolat nafaqat axloqiy fazilat, balki jamiyatni tartibga soluvchi, raiyatni birlashtiruvchi siyosiy mexanizm sifatida ko‘rsatiladi. Insonparvarlik esa adolatning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, rahbarning xalq dardiga sherik bo‘lishi, ularning ehtiyojlarini anglab, muammolarini yengillashtirishga intilishi bilan belgilanadi. Shu jihatdan Navoiyda odil hukmdor obrazi faqat hukm chiqaruvchi shaxs emas, balki xalq farovonligi uchun ma’naviy javobgarlikni zimmasiga olgan rahnamo sifatida badiiylashtiriladi.

Dostonda Iskandar jasur va qudratli sarkarda sifatida ham ulug‘lanadi, biroq bu qudrat mutlaq zo‘ravonlik bilan emas, balki adolat va tartibni ta’minlash bilan bog‘lanadi. Xususan, Chin xoqoni bilan bog‘liq epizodda urushning dahshati, minglab begunoh insonlar qurbon bo‘lishi mumkinligi eslatilib, rahbarning aql-idroki tufayli qon to‘kilishining oldi olinadi. Bu holat “Sab’ai sayyor”dagi mashhur hikmat bilan hamohang:

Shoh yurt ochmoqin qilsa nasaq,
Yuz tuman qon to‘kar bari nohaq [5;107].

Navoiy bu orqali kuchni o‘z-o‘zicha maqsad emas, balki tinchlik va barqarorlikka xizmat qilishi lozim bo‘lgan vosita sifatida talqin qiladi. Harbiy mahorat doston doirasida faqat adolat va hikmat bilan boshqarilgandagina ijobiy qiymat kasb etadi.

“Saddi Iskandariy”da saxovatlilik rahbar shaxsning muhim ijtimoiy fazilati sifatida ko‘rsatiladi. Navoiy saxovatni boylik miqdori bilan emas, balki himmat balandligi bilan o‘lchaydi:

Birovkim anga himmat o‘ldi baland,
Erur olam ahli aro arjumand.
Kishi naqdi gar bir qaro mis emas,
Agar himmati bo‘lsa muflis emas.

(Alisher Navoiy, “Saddi Iskandariy”).

Bu baytlar rahbarning iqtisodiy resurslarga egaligi emas, balki ularni adolatli taqsimlash mas’uliyati muhim ekanini anglatadi. Saxovat shu tariqa shaxsiy fazilat darajasidan chiqib, davlat boshqaruvida ijtimoiy muvozanatni ta’minlovchi axloqiy mexanizm sifatida poetiklashtiriladi.

Doston matnida hukmdorning maslahatchilar bilan munosabati alohida e’tibor bilan tasvirlanadi. Iskandar atrofida yuzlab “hakim”lar, pok niyatli donishmandlar jam bo‘lib, qarorlar maslahat asosida qabul qilinadi:

Yana xizmatimda necha yuz hakim,
Borining so‘zi pok-u royi salim [3;191].

Bu holat Navoiy qarashlarida yakka hokimiyat yakka fikr degani emasligini, balki haqiqiy donishmandlik turli nuqtayi nazarlarni tinglab, adolatli xulosa chiqarishda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Raiyat bilan munosabat esa hukmdorning “Tengri soyasi” timsoli orqali ifodalanib, uning vazifasi xalqqa osoyish berish ekanligi ta’kidlanadi. Agar raiyat parokanda bo‘lsa, saltanat barqarorligi ham yemirilishi doston mantig‘ida qat’iy qonun sifatida ilgari suriladi.

Shu tariqa “Saddi Iskandariy”da boshqaruv etikasi “xalqni bilish, adolat qilish, shaffoflikka intilish va javobgarlikni anglash” tamoyillari asosida badiiy jihatdan dalillangan mukammal rahbarlik modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

Keltirilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy Iskandar obrazini romantik-afsonaviy fotih doirasida cheklamay, balki uni ma’naviy-siyosiy

idealni ifodalovchi tizimli rahbarlik modeli darajasiga ko‘taradi. Doston mantig‘ida rahbarlik fazilatlari alohida-alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq va bir-birini muvozanatlashtiruvchi mexanizm sifatida ishlaydi: hikmat adolatni yo‘naltiradi, adolat kuchni me’yorlaydi, saxovat ijtimoiy muvozanatni ta’minlaydi, maslahatlashuv esa qarorning axloqiy-siyosiy legitimligini mustahkamlaydi. Bu yondashuv Navoiy uchun rahbarlikni “kuch markazi” emas, balki mas’uliyat markazi sifatida talqin qilishni anglatadi.

Hikmatning ustuvorligi doston matnida izchil ravishda dalillanadi. Iskandarning “ahli hikmat bila anjuman” tutishi, qarorlarni shoshilinch emas, balki qobiliyat–vuquf–hikmat zanjiri orqali pishitishi rahbar tafakkurining intellektual tayanchini ko‘rsatadi. Bu g‘oya Navoiyda bevosita bayon etiladi:

Ne qilg‘olikim kimga niyatdurur,
Burun shart anga qobiliyatdurur [3;184].

Mazkur bayt rahbarlikda tasodifiylikni inkor etib, oqilona rejalash va axloqiy tayyorgarlikni shart sifatida qo‘yadi.

Adolat esa hukmdorlik mohiyatining axloqiy o‘qi sifatida yetakchi g‘oya bo‘lib, u raiyat ishonchini jamlovchi va davlat barqarorligini ta’minlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Navoiy buni qat’iy formulada ifodalaydi:

Kerak shah adolat shior aylagay,
Ki zulm ahlini xoksor aylagay [3;441].

Bu yerda adolat faqat huquqiy tenglik emas, balki zulmni cheklovchi ma’naviy mexanizm sifatida yoritiladi. Insonparvarlik esa adolatning amaliy ko‘rinishi bo‘lib, rahbarning xalq dardiga sherikligi, ehtiyojni eshitishi va muammolarni yengillashtirishga intilishi bilan o‘lchanadi.

Kuch va harbiy mahorat masalasida Navoiy zo‘ravonlikni legitimatsiya qilmaydi, aksincha, qudratni hikmat va adolat bilan boshqarishni talab qiladi. Chin xoqoni epizodida urush oqibatidagi qurbonlar xatari eslatilib, murosa va aql bilan tinchlikka erishish ulug‘lanadi. Bu g‘oya Navoiy ijodida barqaror bo‘lib, *Sab’ai sayyor*da ham umumlashtiriladi:

Shoh yurt ochmoqin qilsa nasaq,

Yuz tuman qon to‘kar bari nohaq [5;107].

Shu tariqa, harbiy qudrat maqsad emas, balki tinchlik va ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin etiladi.

Saxovat va himmat rahbarning ijtimoiy mas’uliyatini belgilovchi mezon sifatida keng yoritiladi. Navoiy boylikning axloqiy qiymatini uning taqsimotida ko‘radi:

Agar himmati bo‘lsa muflis emas [3;78].

Bu yondashuv rahbarni resurslar egasi emas, balki resurslarni adolatli taqsimlovchi axloqiy subyekt sifatida ko‘rsatadi. Natijada saxovat davlat boshqaruvida ijtimoiy adolatning amaliy mexanizmiga aylanadi.

“Saddi Iskandariy” dostonida Alisher Navoiy Iskandar timsolini tarixiy rivoyatlar doirasida saqlagan holda, uni ma’rifiy-axloqiy idealni mujassam etuvchi yaxlit va murakkab poetik rahbar modeli darajasiga ko‘targan. Doston talqinida rahbarlikning markazida hikmat va oqilona qaror qabul qilish madaniyati turib, qudrat va fath g‘oyasi ma’naviy mas’uliyat bilan cheklanadi hamda adolat va insonparvarlik hukmdorlik mohiyatining asosiy axloqiy mezoniga aylantiriladi. Shu bilan birga, saxovat va himmat ijtimoiy adolatni ta’minlovchi amaliy mexanizm sifatida talqin qilinib, rahbarning resurslar taqsimotidagi mas’uliyati poetik jihatdan asoslanadi. Maslahatlashuv instituti hamda mulozimlar, vazirlar va raiyat bilan munosabat etikasi esa boshqaruv madaniyatining ajralmas qismi sifatida yoritilib, Iskandar obrazi orqali Navoiy ideal rahbar shaxsini tizimli, uyg‘un va barqaror davlat boshqaruviga xizmat qiluvchi ma’naviy-siyosiy konsepsiya darajasida umumlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ганжавий Н. Хамса / Форсчадан О.Бўриев таржимаси. - Тошкент: Istiqlol nuri, 2016. – 684 б.

2. Комилов Н. Навоий тафаккури манбалари. – Тошкент: Академнашр, 2017.

3. Навоий, Алишер. Садди Искандарий. https://library.navoiy-uni.uz/files/alisher navoiy saddi iskandariy kirill.pdf – Б. 184.

4. Навоий, Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 10-том. Сабьаи сайёр. – Тошкент: Фан, 1992.

5. Навоий, Алишер. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 10-том. Сабьаи сайёр. – Тошкент: Фан, – 1992.

6. Pardayeva I. Alisher Navoiy “Xamsa”sida hukmdor shaxsiyati timsoli: monografiya. – Samarqand: SamDCHTI, 2025.

7. Ergashev M. Alisher Navoiy qahramonlarining ma’naviy qiyofasi. – Toshkent: Akademnashr, 2022.

8. Ganiyeva N. Sharq mumtoz adabiyotida Iskandar obrazi. — Toshkent: Fan, 2004.